

Charm-poyabzal va muynachilik sohalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida soliq imtiyozlari berilmoqda

Joriy yilning **26-fevral** kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Charm-poyabzal va mo'ynachilik sohalarida tayyor mahsulot ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi **PQ-143-sonli** qarori qabul qilindi.

Mamlakatimizda teri xomashyosini chuqur qayta ishlash asosida undan yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor charm-poyabzal mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilishni jadallashtirish maqsadida qo'yidagi **soliq imtiyozlari** belgilandi:

a) *charm-poyabzal, mo'ynachilik* sohasi korxonalari va *chorva mollari*ni so'yish va *terini* qayta ishlovchi tashkilotlar uchun ko'zda tutilgan **soliq** va bojxona to'lovlari bo'yicha **imtiyozlarni 2023-yil 1-yanvardan 2026-yil 1-yanvargacha** uzaytirilmoqda;

b) **2022-yil 1-apreldan 2025-yil 1-yanvargacha** quyidagilar uchun **ijtimoiy soliq** stavkasi **1 %** miqdorida undirish belgilanmoqda:

✓ ishlab chiqaruvchilarning yalpi tushumida bolalar, ayollar va sport poyabzallari, sun'iy (eko) charm, furnitura, poyabzal qoliplari va tagliklari ishlab chiqarishdan tushgan tushumning ulushi hisobot davri yakuni bo'yicha kamida **60 %** tashkil qilgan ishlab chiqaruvchilar;

✓ yalpi tushumining umumiy hajmida poyabzallar, charm-attorlik mahsulotlari va mo'ynadan tayyorlangan buyumlar eksportidan tushgan tushumning hajmi **80 %ini** tashkil qilgan ishlab chiqaruvchilar;

Shuningdek, **jismoniy shaxslarning** teri xomashyosini **yig'ish** va **tayyorlash** faoliyati **o'zini o'zi band qilgan shaxslar** shug'ullanishi mumkin bo'lgan **faoliyat hisoblanishi** belgilanmoqda.